

Namangan viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2026-yil yanvar oyi uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026- yilning yanvar oyida, Namangan viloyatida jami 656,1 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 114,7% ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamika



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Namangan viloyati	656,1	114,7
Mingbuloq tumani	14,3	119,0
Kosonsoy tumani	22,2	116,0
Namangan tumani	25,1	119,1
Norin tumani	17,4	113,2
Pop tumani	28,4	123,0
To'raqo'rg'on tumani	23,4	118,6
Uychi tumani	28,2	114,2
Uchqo'rg'on tumani	23,4	117,6
Chortoq tumani	38,5	120,7
Chust tumani	21,1	114,4
Yangiqo'rg'on tumani	23,3	117,4
Namangan shahar	146,1	117,5
shundan		
Davlatobod tumani	64,7	109,3
Yangi Namangan tumani	42,7	130,1
Taqsimlanmagan	244,7	111,1

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2026-yilning yanvar oyida Namangan viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 81,0% ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 111,8% ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 6,3% ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 147,1% ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 12,7% ulushni va 2025-yilning mos davriga nisbatan 120,6% ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd. so'm	26,4	11,8	0,9
<i>o'sish sur'ati, %</i>	<i>108,1</i>	<i>2,7 m</i>	<i>112,1</i>
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd. so'm	195,3	29,4	82,3
<i>o'sish sur'ati, %</i>	<i>116,9</i>	<i>127,4</i>	<i>123,1</i>
Norasmiy sektor hajmi, mlrd. so'm	310,0	-	-
<i>o'sish sur'ati, %</i>	<i>108,4</i>	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026-yilning yanvar oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 39,1 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 132,0% ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 0,7% ga ko'payib, 6,0% ni tashkil etdi.

Shuningdek kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 46,8% i to'g'ri kelib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 1,0 ga ko'payib. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 119,4% ni tashkil etgan holda 307,0 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 47,2% mos davriga nisbatan 1,7% ga kamaygan yoki 310,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 108,4% ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Namangan viloyati	39,1	307,0	310,0	132,0	119,4	108,4
Mingbuloq tumani	0,5	8,6	5,2	2,2 m	124,9	105,4
Kosonsoy tumani	0,0	11,4	10,8	-	122,4	109,7
Namangan tumani	0,7	19,0	5,4	2,2 m	121,0	106,5
Norin tumani	0,0	11,7	5,8	-	116,4	107,1
Pop tumani	4,2	18,5	5,8	159,6	123,3	104,1
To'raqo'rg'on tumani	0,4	16,1	6,9	-	120,6	107,6
Uychi tumani	0,5	20,9	6,7	-	112,6	110,1
Uchqo'rg'on tumani	0,9	16,6	6,0	3,0 m	118,9	105,1
Chortoq tumani	0,9	29,8	7,8	89,9 m	121,9	104,2
Chust tumani	0,6	12,0	8,5	125,0	116,6	110,6
Yangiqo'rg'on tumani	0,5	15,2	7,6	101,0	121,4	111,2
Namangan shahar shundan	22,8	110,9	12,3	113,2	119,6	107,7
Davlatobod tumani	16,0	45,8	2,8	2,4	124,5	112,7
Yangi Namangan tumani	6,1	33,4	3,3	173,7	112,1	106,1
Taqsimlanmagan	7,1	16,3	221,2	115,7	114,3	108,6

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Chortoq tumani (2025-yilning mos davriga nisbatan 89,9 m), va Uchqo'rg'on tumanida (3,0 m) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Mingbuloq tumanida (2025-yilning mos davriga nisbatan 124,9 %) va Pop tumanida (123,3%) kuzatildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Yangiqo'rg'on tumani (2025-yilning mos davriga nisbatan 111,2%), Uychi tumanida (110,1%) va Kosonsoy tumanida (109,7%) qayd etildi.

V. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

**Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi**

Aloqa telefoni
(69) 227-84-85

Maznil:
160133, Namangan sh.,
N.Namangoniy ko'chasi, 14
